IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: KK75226373

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
BUYRUG‘I

4 aprel 2025 yil. **756-son** Toshkent sh.

Toshkent tibbiyot akademiyasida talaba-yoshlar, professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasida chekishga qarshi kurashishning samarali ta’sir choralarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasida talaba-yoshlar, professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasida chekishga qarshi kurashishning samarali ta’sir choralarini oshirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. “Toshkent tibbiyot akademiyasi-chekishdan holi hudud” deb e’lon qilinsin.

2. Barcha prorektorlar (Sh.A.Boymuradov, T.A.Bobomuratov, F.L.Azizova, M.Sh.Karimov, J.J.Israilov), barcha fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, A.A.Xamrayev, F.I.Salomova, S.I.Aliyev, J.X.Tursunov, A.A.Imomov, F.Saloxiddinov), Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori (U.A.Tashkenbayeva), Talabalar turar joyi direksiyasi direktori (S.O‘.Ruzmetov):

Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o‘rinlarda-Akademiya) aprel-may oylari davomida chekishga qarshi **“dolzarb qirq kunlik”** e’lon qilinsin;

“Akademiya-chekishdan holi hudud” bosh g‘oyasi ostida talaba-yoshlar o‘rtasida tamaki mahsulotlari tarqalishini va iste’molini oldini olish, uning salbiy ta’siri to‘g‘risida doimiy targ‘ibot ishlari olib borsin;

“31-may-Butunjahon chekishga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlab “Men chekishga qarshiman” mavzusiga qaratilgan ijodiy ishlar tanlovi (insholar, rasmlar, videoroliklar) o‘tkazilishini ta’minlasin;

talaba-yoshlar, professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasida chekishga qarshi kurash bo‘yicha nazoratni kuchaytirish maqsadida Akademiya ko‘p tarmoqli klinikasi, bosh o‘quv binosi, yordamchi o‘quv binolari hududlar kesimida kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlariga ilovaga muvofiq biriktirilsin;

talabalar turar joylarida “Payshanba-jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurash kuni” doirasida soha mutahassislari ishtirokida profilaktik tadbirlarni tashkil etsin.

3. Ekspluatatsiya va xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i (X.R.Mamatov), Bosh buxgalter o‘rinbosari (O‘.M.Buriboyev) barcha o‘quv binolari, Talabalar turar joylariga “Akademiya-chekishdan holi hudud” bosh g‘oyasi singdirilgan bannerlar o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Akademiya Odob-axloq komissiyasi raisi (T.A.Bobomuratov) talabalar hamda professor-o‘qituvchilar o‘rtasida chekishga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartibni qo‘pol ravishda buzgan talabalar hamda xodimlarni Odob-axloq komissiyasida muhokama etilishini hamda o‘rnatilgan tartibda chora belgilanishi bo‘yicha takliflar kiritilishini ta’minlasin.

5. Matbuot kotibi (G.T.Mirzayeva) Akademiya ijtimoiy tarmoqlariga tamaki mahsulotlari tarqalishini va iste’molini oldini olish, uning salbiy ta’siri to‘g‘risidagi targ‘ibot materiallarini doimiy ravishda joylab borilishini ta’minlasin.

6. Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (O.U.G‘oipov), Bosh buxgalter o‘rinbosari (O‘.M.Buriboyev) “31-may-Butunjahon chekishga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlab “Men chekishga qarshiman” mavzusida o‘tkazilgan ijodiy ishlar tanlovi (insholar, rasmlar, videoroliklar) 1-,2-,3-o‘rin g‘oliblarini o‘rnatilgan tartibda rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin.

7. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (T.A.Bobomuratov) zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b. **Sh.A.Boymuradov**